

ФИО автора: *Xamrayeva E'zozxon Muzaffarovna*
O'ZBEKISTON. Jizzax davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Название	публикации:	«МАКТАБГА ЧА	ТА'ЛИМ	ТАШКИЛОТ ИДА
MASHG'ULOTLAR ARNI	TASHKIL	ETISHDA	INNOVATSION	

TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI»

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida mashg'ulotlar jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning mazmuni va afzalliklari haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jarayonlar, o'xshashlik, umumiylik, radikal innovatsiyalar, samaradorlik, ilmiy salohiyat, barkamol shaxs, mutaxassislik, innovatsiyalar.

Аннотация: В статье рассматриваются содержание и преимущества использования инновационных технологий в образовательном процессе в дошкольном образовании.

Ключевые слова: педагогические процессы, сходство, общность, радикальные нововведения, эффективность, научный потенциал, разносторонняя личность, специализация, инновации.

Abstract: This article discusses the content and benefits of using innovative technologies in the educational process in preschool education.

Keywords: pedagogical processes, similarity, generality, radical innovations, efficiency, scientific potential, well-rounded personality, specialization, innovation.

Har bir davlat va jamiyatning taraqqiyoti, istiqboli, [farovonligi](#), ma'naviy yuksalishi, jahonning eng rivojlangan davlatlar qatoridan o'rin olishi - bilimli, yuqori intellektual salohiyatli, qalbiga va ongiga ezgu fazilatlarni mujassamlashtirgan yoshlarga bog'liq hisoblanib, [har jihatdan yetuk va barkamol](#), vatan taqdiri uchun sitqi dildan xizmat qiladigan, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o'qitishni sifatli va

mazmun jihatdan yuqori pog'onalariga olib chiqish avvalo o'qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga sharaflilik va ayni paytda mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

456

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaning sifat va samaradorligini oshirish – ta'lim-tarbiya jarayonida yangi shakl va metodlarni,

yangi

texnologiyalarni amaliyotda joriy qilish bilan belgilanadi. Innovatsion texnologiyalar

–pedagogik jarayon hamda o`qituvchi va o`quvchi (talaba) faoliyatiga yangilik, o`zgarishlar kiritish bo`lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalaniladi. Shu o`rinda bir savol tug`iladi. Xo`sh, innovatsiya o`zi nima? Adabiyotlarda keltirilishicha, “innovatsiya – inglizcha innovation “kiritilgan yangilik,

ixtiro” degan ma`nolarni anglatadi”. Biz tarbiyachilar esa innovatsiya tushunchasini –

maqsadga yo`naltirilgan o`zgartirishlar bo`lib, ma`lum bir ijtimoiy birlikka – muassasa, uyushma, jamoa va guruhlariga yangi va nisbatan barqaror bo`lgan elementlarni, umumiy holda xalqning ma`naviy-madaniy munosabatlari va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan uzviy bog`liq bo`lgan yangiliklarni

kiritish jarayoni deb tushunamiz. Bir so`z bilan aytganda, innovatsion jarayon – yangilik yaratish va ularni o`zlashtirish hamda ta`lim muassasasi amaliyotida samarali

qo`llash hisoblanadi. Tadqiqotchi olimlar S.T.Turg`unov, B.X.Daniyarov, D.M.Otajonovalarning muallifligidagi “O`qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta`lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari” nomli o`quv

qo`llanmalarida innovatsion jarayon innovatsiyalarni vujudga keltirish, amaliyotga tatbiq etish va ommalashtirish faoliyatlari bilan bog`liqligini ta`kidlaganlar.

Hozirda maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ta`lim jarayonida qo`llaniladigan innovatsion texnologiyalarni qo`llashdan maqsad, o`quvchilarni mustaqil, erkin, fikrlashga o`rgatish, shuningdek, zamonaviy bilim va kasb-hunar egallashga o`rgatishdan iborat. Donolar deydilarki, “O`zini kamol toptira olmagan inson, o`zgalar

kamolotini ta`minlay olmaydi”. Shunday ekan, o`quv jarayonini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish uchun avvalombor, o`qituvchining o`zi, zamon

talabini chuqur anglashi, innovatsion texnologiyalarni muakammal o`zlashtirishi va

amaliyotda tatbiq etish yo`llarini bilishi lozim. Zero, zamonaviy pedagog–kelajakning

bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalarning muallifi, tadqiqotchisi, targ`ibotchisidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bugungi kunda barcha mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanib borishmoqda. Bunga misol tariqasida ingliz tili mashg'ulotlarini olaylik. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili o'qituvchilari o'qitishda oson metodikalar orqali, o'quvchilar atrofidagi buyumlardan, kartochkalardan va boshqa o'quv qo'llanmalaridan to'liq foydalanishadi. "Banana" va "apple" kabi so'zlarni o'qitishda o'qituvchilar banan va olma kabi mevalarni ko'rsatib birdaniga rangni bildiruvchi yangi so'zlarni ham o'rgatib ketishlari mumkin. Bolalar o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish uchun xonadagi narsalar orqali ularni chet tilida qo'llanilishini o'rgatib borishadi. Yangi pedagogik texnologiyalarni ingliz tili ta'lim [tizimiga kiritish](#), tatbiq etish, qiziqarli usullardan foydalanish o'zining samarasini bermoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi kunda maktabgacha ta'lim muassasasi uchun o'quv jarayonining zaruriy va asosiy komponentiga aylanib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini muloqot quroli sifatida shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati interaktiv usullarning samaradorligini, kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashda ahamiyatli ekanidan dalolat beradi. Ta'limni motivlash o'quv faoliyatini tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida xorijiy tillarini yanada takomillashtirish zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish tarbiyachilar faoliyatida yosh avlodni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'rgatishda bolalarning qiziqish va [qobiliyatlarini faollashtirish](#), ularning yangi materialni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishda maqsadga erishishni ta'minlovchi ta'lim usullari kuchli motivlashtiruvchi omildir. Maktabgacha ta'lim bilimlarning poydevori ekanligini inobatga olgan holda, bu jarayonni zamon talablariga mos holda, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. dars mashg'ulotlarini yangi shakl va texnologiyalarga muvofiq tashkil qilish va o'tkazish, o'z pedagogik faoliyatlariga

innovatsion yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

458

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxo'jayeva N. «Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat». TDPU-2003
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2008.
3. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
4. Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
5. Xasanova, G. (2020). Мактабгача таълим ташкилотларида халқ оғзаки ижоди воситаларидан фойдаланишнинг педагогик мазмуни. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic research in educational sciences*, 2(1).